

XAKIMOVA Nigora Alisherovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti, PhD
nigora_24@yahoo.com*

QIROAT ILMI RIVOJIDA QIROAT IMOMLARINING O'RNI

THE ROLE OF QIRĀ'ĀT IMAMS IN THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF QIRĀ'ĀT

РОЛЬ ИМАМОВ КИРААТА В РАЗВИТИИ НАУКИ О КИРААТАХ

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qur'on qiroati ilmining shakllanishi va rivojlanish jarayonida qiroat imomlarining o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiroatlarning yetti turdan o'n qiroat tizimigacha kengayish jarayoni, ularning standartlashtirilish sabablari hamda ushbu jarayonda yetakchi qiroat imomlarining metodologik yondashuvlari yoritiladi. Shuningdek, qiroat, rivoyat va tariq tushunchalari o'rtasidagi farqlar izohlanib, sahih qiroatlarni aniqlashda isnod, Usmon mus'hafi rasmiga muvofiqlik va arab tili grammatik qoidalarining tutgan o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada o'n qiroat imomlarining ilmiy merosi, ularning qiroat ilmidagi mavqei tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Qur'on qiroatlari, qiroat ilmi, o'n qiroat imomlari, rivoyat, tariq, isnod, mutavotir qiroat.

Abstract. This article examines the role of the imams of qirā'āt in the formation and development of the science of Qur'anic readings. It analyzes the historical transition from the seven canonical readings to the system of ten qirā'āt, highlighting the methodological principles and scholarly motivations behind their standardization. The study also clarifies the conceptual distinctions between qirā'a, riwāya, and ṭarīq, and outlines the criteria for the acceptance of sound readings, including reliable chains of transmission (isnād), conformity with the 'Uthmānic codex, and compliance with Arabic grammatical norms. Drawing on classical sources, the article explores the scholarly legacy of the ten imams of qirā'āt and their enduring contribution to the preservation and transmission of the Qur'anic text.

Keywords. Qur'anic readings, science of qirā'āt, ten imams of qirā'āt, riwāya, ṭarīq, isnād, mutawātir readings.

Аннотация. В статье исследуется роль имамов кираата в становлении и развитии дисциплины коранических чтений. Анализируется процесс перехода от системы семи кираатов к десяти, а также рассматриваются причины и методологические основания их канонизации. Особое внимание уделяется разграничению понятий кираат, ривайат и тарик, а также критериям достоверности чтений, включая непрерывность цепи передатчиков, соответствие орфографии османского кодекса и нормам арабской грамматики. На основе классических источников раскрывается вклад десяти имамов в сохранение и передачу коранического текста, а также их значение в системе исламских наук.

Ключевые слова. Коранические кирааты, наука о кираатах, десять имамов кираата, ривайат, тарик, иснад, мутаватир.

KIRISH

O'z davrining qiroat imomi va mazkur ilm sohasining yetakchisi hisoblangan Ibn Mujohid (vaf. 324/936) qiroatlar sonini birinchi bo'lib yettiga chekladi. Qiroatlarni standartlashtirishdagi metodologiyasi va motivlarini izohlar ekan, u shunday degan: "Madina, Makka, Kufa, Basra va Shom xalqlari tomonidan qabul qilingan Qur'on qiroati bu ularning avlodlaridan og'zaki rivoyat orqali olingan qiroatdir. Har bir mintaqadan bir kishi, tobeinlardan o'rganib, o'sha qiroatga sodiq bo'lgan, jamiyatning barcha vakillari va yetakchilar uning qiroatini qabul qilgan, uning qiroat uslubini o'rgangan va metodologiyasiga rioya qilgan" [7:45].

Ibn Mujohid o'z asarini "Sab'a" deb nomlagan, biroq qiroatlar sonini harflar soni kabi yettita etib belgilanishi boshqa har qanday qiroat Qur'on emas degan yanglish xulosani paydo qilgan bo'lishi mumkin. Ushbu bog'liqlik sahih qiroatlar soni borasida ma'lum chalkashliklarga sabab bo'lgan. Shunga qaramay, Ibn Mujohidning metodologiyasiga amal qilgan holda, IV asr oxiri va V asr davomida olimlar yana uch qiroatni bu ro'yxatga qo'shdilar. Bu qiroatlar ayni mintaqalardan kelib chiqqan va ularning qiroatdagi ixtiyori asosan dastlabki yetti qiroatlardan bir nechtagiga tegishli hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O'n qiroatning standartlashtirilishi ularning nomi bilan atalgan qiroat imomlari qiroatlarning

yagona yetuk mutaxassislar bo'lganini anglatmaydi. Aslida, tarix davomida yuzlab boshqa mashhur qorilar mavjud bo'lgan. Biroq, tizimlashtirish jarayoni oxir-oqibat Qur'on ta'limiga butun umrini bag'ishlagan, turli sahoba va tobeinlarning eng ilg'or shogirdlari, mashhur fiqh olimlari va taqvoli ulamolar orasidan o'n qorilar qiroatiga barqarorlashgan.

Quyida musulmon dunyosida tanilgan o'n qiroat imomlari ro'yxati keltirilgan. Ro'yxatda ularning ism-sharifi, kelib chiqishi, Qur'onni o'rganish tajribalari va qaysi hududlarda qiroatlari ommalashgani qisqacha ko'rsatiladi. Bu o'n qorilardan faqat uch nafari sof arab naslidan bo'lib, qolgan imomlar boshqa millat vakillari hisoblanadi. Islom ilmlarining turli sohalaridan yetishib chiqqan ulamolarda kuzatilgani kabi, Qur'on ilmlaridagi yetakchi ulamolarning ko'pchiligi asli arab bo'lmagan qorilar hisoblangan.

Nofe' (vaf. 169/785) kelib chiqishi Isfahonlik fors naslidan bo'lib, Madina qiroat imomi darajasiga erishgan. U hazilkashligi bilan tanilgan edi. Imom Molik uni Qur'on qiroatida "xalqning imomi" deb atagan. Imom Nofe' o'zining qiroat uslubini shakllantirish metodini quyidagicha bayon qiladi: "Men Qur'onni tobeinlardan yetmish nafariga o'qib berdim va ularni sinchiklab tekshirdim, agar ulardan ikki nafari (yoki undan ko'prog'i) bir qiroatda ittifoq qilsa, men uni qabul qildim, faqat bittasidan rivoyat qilinganini esa tark etdim" [7:62]. Rivoyatlarga ko'ra, u Qur'on qiroat qilayotganida og'zidan mushk hidiga o'xshash hid taralar edi. U og'ziga atir sepmaganini aytib, bu hid Payg'ambar (s.a.v.) uning tushida og'ziga Qur'on qiroat qilib berganlaridan keyin paydo bo'lganini ta'kidlagan [5:112].

Ibn Kasir (vaf. 120/737) kelib chiqishi fors naslidan bo'lib, Makka qiroat imomi. Uning bo'yi baland, o'zi bug'doyrang bo'lib, dorishunoslik bilan shug'ullangan. Shu bilan birga hadis va fiqh ilmlarida yetuk olim bo'lgan. Makkada qozilik lavozimiga ham tayinlangan. Ibn Mujohidning ta'kidlashicha, Makka ahli Ibn Kasir qiroatini qabul qilish borasida yakdil fikrda bo'lgan. Ibn Kasir uchrashib, bevosita ta'lim olgan Payg'ambar (s.a.v.) sahobalari qatoriga Abdulloh ibn Zubayr, Anas ibn Molik va Abu Ayyub Ansoriylar kiradi. Imom Shofeiyy Ibn Kasirning qiroatini qabul qilgan va shunday degan: "Kim qiroatda kamolotga intilsa, Ibn Kasir qiroati bilan qiroat qilsin" [3:6].

Ibn Kasirning ta'lim uslubi shundan iborat ediki, u shogirdlarini nasihat yo'li bilan tayyorlar, shunda Qur'on ularga kuchli ta'sir ko'rsatar edi [4:448].

Abu Amr (vaf. 154/770) Banu Hanifa qabilasidan, kelib chiqishi arab bo'lgan Basra qiroat imomi. U hadis va arab tili ilmlarining yetakchi olimlaridan edi. U qorilar orasida eng ko'p safar qilgan va eng ko'p sonli ustozlardan ta'lim olgan shaxs sifatida tanilgan. Abu Amr Qur'onni o'n qiroat imomlaridan yana uch nafari Ibn Kasir, Osim va Abu Ja'far bilan birga qiroat qilgan. Sufyon ibn Uyayna rivoyat qilishicha, u tushida Payg'ambar (s.a.v.) ko'rgan va qaysi qiroatda qiroat qilishi kerakligini so'ragan. Payg'ambar (s.a.v.) esa: "Abu Amrning qiroatida," deb javob bergan [2:18].

Ibn Omir (vaf. 118/736) Yahsub naslidan tub arab bo'lib, Damashq qiroat imomi. U Shom mintaqasida "Imom" nomi bilan mashhur edi. U hijratdan bir necha yil o'tib tug'ilgan, degan qarash mavjud. Garchi Payg'ambar (s.a.v.) ko'rmagan va u zot bilan uchrashmagan bo'lsa-da, o'n qiroat imomlari orasida Payg'ambar (s.a.v.) borib tutashuvchi eng qisqa Qur'on isnodiga ega bo'lib, unda faqat bitta vositachi mavjud edi. Ibn Omir Qur'onni sahobalardan, jumladan Mug'ira ibn Shihob Maxsumiy va Abu Dardodan bevosita ta'lim olgan. U Abu Dardoning 1600 nafar shogirdi orasida yuqori o'rinni egallagan va ustozining vafotidan so'ng uning ta'lim berish lavozimini egallagan. Natijada, Ibn Omir xalifa Umar ibn Abdulaziz davrida Damashqdagi Umaviy masjidining imomi va bosh qorisi bo'lib faoliyat yuritgan. Umar ibn Abdulaziz unga iqtido qilib namoz o'qir edi. Shuningdek, Ibn Omir shaharning qozisi etib ham tayinlangan, o'sha paytda Damashq poytaxt shahar hisoblangan.

Osim (vaf. 127/745) banu Asad qabilasining mavlosi¹, Kufa qiroat imomi. U Payg'ambar (s.a.v.) hayotlik chog'ida tug'ilgan va 24 nafar sahoba bilan uchrashgan. Uning ko'zi ojiz bo'lib, qiroatda eng go'zal ovozlardan biriga ega edi. Uning qiroati Ibn Mas'ud va Alining (r.a.) qiroatlariga asoslangan edi. Chunki u Ibn Mas'udning (r.a.) yetuk shogirdi Zirr ibn Hubaysh bilan, Alining (r.a.) yetuk shogirdi

¹ Mavoliy atamasi odatda ozod etilgan qullar yoki qabilaviy ittifoqdoshlarni anglatishiga qaramay, u arab bo'lmagan xalqlar avlodlarini ifodalash uchun ham qo'llanilgan. O'n nafar qiroat imomlaridan hech biri ozod etilgan qul bo'lmagan, shuningdek ularning ajdodlari orasida ham bunday shaxslar mavjud emas edi.

Sulamiy bilan mashg'ulotlardan keyin o'z qiroatini qayta ko'rib borar edi. Osim xalifa Usmon (r.a.) davridan Hajjoj hokimligi davrigacha 40 yil davomida Kufaning bosh qorisi bo'lgan ustoz Abu Abdurrohman Sulamiydan ta'lim berish lavozimini meros qilib oldi.

Osimning shogirdi Sho'ba rivoyat qilishicha, u imom Osimni o'lim to'shagida ko'rganida, ustoz goh hushidan ketib, goh hushiga kelib turar ekan, doimiy ravishda ushbu oyatni takrorlar edi: "So'ngra (ular) haqiqiy egalari – Alloh (huzuri) ga qaytarilurlar". Sho'ba shunday degan: "Men Qur'on qiroati uning tabiatiga singib ketgan tabiiy bir sifat ekanini angladim" [10:93].

Hamza Zayyot (vaf. 156/722) Taym qabilasining mavlosi, Kufa qiroat imomi. U yog' savdosi bilan shug'ullangan savdogar bo'lib (shu bois Zayyot laqabi bilan tanilgan), A'mash va Osimdan keyin Kufada yetakchi qori hisoblangan. Sufyon Savriy imom Hamzaning qiroatini yuksak baholab, shunday guvohlik bergan: "U rivoyatga tayanmasdan birorta harfni o'qimagan" [7:76]. Uning qiroati Kufa masjidlarida eng keng tarqalgan qiroat bo'lgani rivoyat qilinadi.

Hamzaning zamondoshi bo'lgan Imom Abu Hanifa ham uning qiroat va meros huquqi ilmda o'zidan ustun ekanini e'tirof etgan [7:261]. Hamza Qur'on ta'limi uchun hech qachon haq olmagan. O'zining bu tamoyilni u jannatning eng oliy darajasi bo'lmish Firdavsga erishish yo'lidagi maqsadi bilan izohlagan. Kun nihoyatda issiq bo'lganida shogirdlaridan biri unga sovuq suv taklif qilsa ham Hamza uni rad etgan, chunki unga Qur'ondan ta'lim berayotgan bo'lgan.

Kisoiy (vaf. 189/804) Banu Asad qabilasining mavlosi, kelib chiqishi fors bo'lib, Kufa qiroat imomi. U yetuk nahv (grammatika) olimi bo'lib, ustoz Hamzadan keyin Kufaning bosh qorisi etib tayinlangan. Hamza uning ustozlaridan bo'lgan va Kisoiy Qur'onni u bilan to'rt marta arz qilgan.

Kisoiyning darslarida son-sanoqsiz shogirdlar qatnashar edilar. U kursisiga o'tirib, Qur'onni boshidan oxirigacha tilovat qilar, shogirdlar esa uning qiroatiga muvofiq o'z o'qishlari va talaffuzlarini tuzatib borar edilar.

Kisoiy vafotidan keyin uni tushda ko'rishgani va undan: "Alloh senga nima qildi?" deb so'rashgani rivoyat qilinadi. U: "Qur'on sababli meni mag'firat qildi," deb javob bergan. So'ng undan: "Hamzaga nima qildi?" deb so'ralganda: "U illiyyunda (eng

oliy maqomlarda). Biz uni faqat yulduzlarni ko'rgandek ko'ramiz", deb javob bergan.

Abu Ja'far (vaf. 130/747) Maxzum qabilasining mavlosi, Madina qiroat imomi. U eng dastlabki qiroat imomlaridan biri bo'lib, imom Nofening ustoz hisoblanadi. U Madinaning imomi va bosh qorisi sifatida tanilgan bo'lib, Qur'onni Ibn Abbos va Abu Hurayradan ta'lim olgan. Rivoyat qilinishicha, u bolaligida Payg'ambarning (s.a.v.) zavjalari Umm Salamani (r.a.) ziyorat qilgan, mo'minlar onasi uning boshidan silab, Allohdan unga baraka berishini so'rab duo qilgan [10:73].

Imom Molik shunday degan: "Abu Ja'far qori va solih inson bo'lib, Madina ahliga fatvo berar edi" [6:382]. Imom Nofe rivoyat qilishicha, Abu Ja'far vafot etgach, jasadi yuvilayotgan paytda uning bo'yni va ko'ragi mus'haf sahifasidek ko'ringan. "Hodisaning guvohi bo'lganlar," – deya eslaydi imom Nofe, "buni *Qur'on nuri* sababli ekaniga shubha qilmagan" [10:75-76].

Ya'qub (vaf. 205/820) Hadramiy qabilasining mavlosi, Basra qiroat imomi. U Abu Amrdan keyin Basraning bosh qorisi bo'lgan. U yetti harf va ular o'rtasidagi farqlar bo'yicha yetuk mutaxassislardan biri bo'lib, qiroat ilmiga oid asarlar ham yozgan [8:391]. U ta'lim olgan va rivoyat qilgan ko'plab qiroatlar orasida Hamza va Kisoiy qiroatlari ham bor edi. Uning namozdagi xushu'i haqida shunday rivoyat qilinadiki, namoz paytida yelkasidan kiyimi olinib, yana qaytarib qo'yilganini ham sezmagani [10:158].

Xalaf (vaf. 229/843) Banu Asad qabilasidan asli arab bo'lgan, Bag'dod qiroat imomi. U urug' savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar bo'lgan, biroq bu unvonni yoqtirmagan va o'zini "Qur'on muallimi" (*muqri*) deb atashni afzal ko'rgan. U o'n sahiih qiroat imomlaridan biri, shuningdek Hamza qiroatining ikki roviylaridan biri hisoblanadi. O'n qiroat tarkibidagi qori sifatida u ko'pincha "o'ninchi Xalaf" (Xalaf Oshir) deb ataladi. Uning isnodi Hamza va Osim orqali bog'langan bo'lib, qiroati Kufa maktabiga mansub boshqa qorilarning qiroatlariga juda yaqindir. Ilm talabida nihoyatda fidoyi bo'lgan Xalaf bir grammatik masalani to'liq anglash uchun 80 ming dirham sarflagani manbalarda qayd qilingan [10:209].

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'nta sahiih qiroatlar rivoyat zanjirlari (isnodlar) orqali tizimlashtirilgan bo'lib, ularning barchasi sahobalar orasidagi qorilar guruhi bilan muvofiq

isnod talablari asosida bog'langan [10:209]. Payg'ambar (s.a.v.) bilan butun Qur'onni to'liq o'qigan va uni yod olgan eng mashhur sahobalar qatoriga Usmon, Aliy, Ubayy ibn Ka'b, Zayd ibn Sobit, Ibn Mas'ud, Abu Muso Ash'ariy va Abu Dardolar (r.a.) kiradi. Quyida ushbu yetti sahoba bilan o'nta qiroat imomlari o'rtasidagi isnoddagi bog'liqlik ochib beriladi. Ushbu bog'lanishlarni aniqlash mavjud tarixiy ma'lumotlarga tayanadi va bu isnodlar qiroatlarning uzatilish zanjirlarida mavjud bo'lgan yagona yo'llar, degan ma'noni anglatmaydi.

Ro'yxat quyidagi sahobalarga Qur'onni o'qib bergan qiroat imomlari soniga ko'ra tartiblangan:

Ubayy ibn Ka'b → Nofe, Ibn Kasir, Abu Amr, Osim, Kisoiy, Abu Ja'far, Ya'qub va Xalaf.

Usmon ibn Affon → Ibn Omir, Osim, Hamza, Kisoiy va Ya'qub.

Ali ibn Abu Tolib → Ibn Kasir, Osim, Hamza, Abu Amr va Ya'qub.

Ibn Mas'ud → Osim, Hamza, Kisoiy, Ya'qub va Xalaf.

Zayd ibn Sobit → Ibn Kasir, Abu Amr, Osim va Ya'qub.

Abu Muso Ash'ariy → Abu Amr.

Abu ad-Dardo → Ibn Omir.

O'n qiroat imomlarining har biri uchun olimlar tomonidan ularning eng mashhur shogirdlaridan bo'lgan ikki nafar roviy belgilangan. Aynan shu holat qiroat bilan rivoyat o'rtasidagi farqni izohlaydi. Qur'on tilovat qilinayotganda, odatda qiroatga emas, balki rivoyatga murojaat qilinadi. Masalan, Osimning ikki roviysi Sho'ba va Hafs hisoblanadi. Shu bois, tilovat usuli ko'rsatilganda "Hafsning Osimdan rivoyatida tilovat qilish" tarzida ifodalanadi. Bir qorining turli rivoyatlari usul va farsh jihatlaridan o'zaro farq qilishi mumkin. Har bir roviy o'z ustozidan muayyan va izchil tilovat usulini qabul qilgan. Quyida har bir qorining yigirma nafar roviylari ro'yxati keltiriladi.

1. Nofe → Qolun (vaf. 220/835) va Varsh (vaf. 197/812)

2. Ibn Kasir → Bazziy (vaf. 250/864) va Qunbul (vaf. 291/903)

3. Abu Amr → Duriy (vaf. 246/861) va Susiy (vaf. 261/874)

4. Ibn Omir → Hishom (vaf. 245/860) va Ibn Daxvon (vaf. 202/818)

5. Osim → Sho'ba (vaf. 193/809) va Hafs (vaf. 180/796)

6. Hamza → Xalaf (vaf. 229/843) va Xalod (vaf. 220/835)

7. Kisoiy → Abu l-Horis (vaf. 240/854) va Duriy (vaf. 246/861)

8. Abu Ja'far → Ibn Vardon (vaf. 160-yillar) va Ibn Jammoz (vaf. 170-yillar)

9. Ya'qub → Ruvays (vaf. 238) va Ravh (vaf. 254)

10. Xalaf → Is'hoq Varroq (vaf. 286) va Idris Haddod (vaf. 292)

Qiroat imomlari uchun ikki roviy tizimi shakllantirilganidek, roviylarning shogirdlari uchun ham alohida tizim vujudga kelgan bo'lib, u tariq (ko'plik shakli turuq) nomi bilan mashhur. Turuqlar Qur'on tilovatining har bir ishonchli uslubi yoki talaffuzdagi nozik jihatlarni saqlab qolish maqsadida rivoyat zanjirlari sifatida tizimlashtirilgan. Rivoyatlar va turuqlarni tadqiq etish hamda ularni tizimlashtirishga bag'ishlangan ilm yo'nalishini bu maqola doirasida batafsil yoritishning imkoni yo'q. O'nta qiroat imomlaridan biriga nisbat berilgan va uning shogirdlari tomonidan ittifoq bilan qabul qilingan har qanday (tilovat) farqi qiroat hisoblanadi. Qorining roviysiga nisbat berilgan (ya'ni u roviy tomonidan o'sha qoridan rivoyat qilingan) har qanday farq rivoyat sanaladi. Roviyning shogirdiga nisbat berilgan har qanday farq esa, rivoyat zanjirining roviygacha bo'lgan uzunligidan qat'i nazar tariq deb e'tirof etiladi [1:9-10].

Qiroatlarning mutavotir darajasiga yetganlari soni doimo yettita ekani ma'lum bo'lib kelgan bo'lsa-da, keyingi davr qiroat va usul ilmi doirasidagi tadqiqotlarda yana uch qiroatni ham qo'shish masalasida umumiy kelishuv shakllandi. Chunki bu uch qiroatdagi farqlar, aksariyat hollarda, avval zikr etilgan yetti qiroatning o'zida allaqachon mujassam bo'lgan farqlar doirasiga kiradi. Qiroat olimlari, shuningdek, "sahih qiroatlar"ga qo'yilgan barcha shartlar, ya'ni ishonchli isnodga ega bo'lishi, Usmon mus'haf rasmiga va arab tili grammatik qoidalariga muvofiqligi Abu Ja'far, Ya'qub va Xalaf qiroatlariga ham to'liq tatbiq etilishini ta'kidlaganlar. Mazkur masala asosan mutavotir tushunchasining ta'rifi va huquqiy aniqlik (yaqin) chegaralari bilan bog'liq bo'lgani sababli texnik xususiyatga ega hisoblanadi. Shunga qaramay, ko'plab olimlar uzluksiz mutavotir yo'l bilan naql qilingan Qur'on qiroatining eng ishonchli ifodasi aynan yetti qiroat ekanini ilgari surganlar. Ushbu

murakkab masala usul va qiroatlar ilmi bo'yicha yozilgan asarlarda batafsil yoritilgan [9:172].

Qiroatlarning mutavotirligi masalasidagi ustun qarash talaffuz (fonetika) jihatidan ma'noga ta'sir ko'rsatmaydigan farqlar bilan ma'noga ta'sir qiladigan tafovutlarni bir-biridan farqlaydi. Ma'noga ta'sir ko'rsatmaydigan lafziy xususiyatlar borasida, fonetik kombinatsiyalarning yuzlab variantlaridagi har bir alohida talaffuzni uzluksiz mutavotir isnod orqali bevosita Payg'ambarga (s.a.v.) bog'lab ko'rsatish zarur emas. Masalan, imola (talaffuzda og'ish), madd (cho'ziq unlilarni cho'zib o'qish) yoki hamza harfining yengillashtirilgan talaffuzi bo'lgan taxfif al-hamza kabi tushunchalar Payg'ambar (s.a.v.) tomonidan mutavotir yo'l bilan sobit bo'lgan. Biroq maddning davomiyligi yoki imolaning darajasi bilan bog'liq texnik tafsilotlar har doim ham mutavotir yo'l bilan uzatilgan bo'lishi shart emas.

Shuni ta'kidlash lozimki, isnodda qiroat imomlarigacha bo'lgan zanjirni bevosita Payg'ambargacha (s.a.v.) hujjatlashtirib bera olmasligimiz bunday isnod aslida mavjud emas, degan ma'noni anglatmaydi. Aksincha, qiroatlar va ularni rivoyat qilgan roviylarning darajasidan qat'i nazar keng tarqalgani, shuningdek, ularning har bir farqi nihoyatda sinchiklab qayd etilgani, Qur'on qiroatlarini ilk bor jamlagan va tizimlashtirgan olimlar bilan bo'lgan mustahkam bog'liqlikni kuchli tarzda tasdiqlaydi.

XULOSA

Qur'on qiroat ilmining tarixiy rivoji shuni ko'rsatadiki, ushbu fan sohasi tasodifiy yoki individual harakatlar mahsuli emas, balki qat'iy ilmiy mezonlar, mustahkam isnod tizimi va avloddan-avlodga uzatilgan an'analar asosida shakllangan murakkab ilmiy tizimdir. Yettita qiroat bilan boshlangan tizimning keyinchalik o'n qiroatgacha kengayishi sahih qiroatlarni aniqlash mezonlarining yanada aniqlashtirilgani va qiroat ilmining nazariy jihatdan rivojlanganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qiroatlarning mutavotirligi masalasi faqat qiroatlar soni bilan emas, balki mutavotir tushunchasining ilmiy ta'rifi, talaffuzdagi farqlarning ma'noga ta'siri va isnodning umumiy tarqalgani bilan chambarchas bog'liqdir. Abu Ja'far, Ya'qub va Xalaf qiroatlarining sahih qiroatlar doirasiga

kiritilishi ushbu mezonlarning to'liq tatbiq etilishi natijasida yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, qiroat imomlari Qur'on qiroat ilmining shakllanishi, tizimlashtirilishi va keyingi avlodlarga yetkazilishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Ularning ilmiy merosi nafaqat Qur'on tilovatining to'g'ri va ishonchli shaklda saqlanishini ta'minladi, balki qiroat ilmining mustaqil fan sohasi sifatida rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Ushbu masala qiroatlar va usul ilmi bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulfattoh Qozi. Al-Budur al-zohira fi al-qiro'ot al-ashr. – Bayrut: Dor al-kitob al-arabiy, 2010.
2. Abu al-Hasan ibn G'albun. Al-Tazkira fi al-qiro'ot. / Sayyid Zaima tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2001.
3. Abu Shoma Maqdisiy. Al-Murshid al-vajiz ila ulum tataallaqu bi-l-kitob al-aziz. / Ibrohim Shamsuddin tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2003.
4. Alamuddin Saxoviy. Jamol al-qurro' va-kamol al-iqro'. / Ali Husayn Bavvob tahqiqi. – Makka: Maktabat al-turos, 1987.
5. Ibn Jazariy. Al-Nashr fi al-qiroat al-ashr. / Ali Muhammad tahqiqi. – Beirut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2006.
6. Ibn Jazariy. G'oyat al-nihoya fi tabaqot al-qurro. / Gotthelf Bergsträsser tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2006.
7. Ibn Mujohid. As-Sab'a fi al-qiroat. / Shavqiy Zayf tahqiqi. – Qohira: Dor al-Maorif, 1979.
8. Ibn Xallikon. Vafayot al-a'yon. / Ehson Abbos. – Bayrut: Dor Sodik, 1968.
9. Jaloliddin Mahalliy. Al-Badr al-tole fi hall jam' al-javome. / Murtazo.
10. Zahabiy. Ma'rifat al-qurro'. – Qohira: Dor al-kutub al-hadisa, 1969.